MAKTABGA TAYYORLOV YOSHIDAGI (6–7 YOSH) BOLALARDA TADQIQOTCHILIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI

Haqberdiyeva Zamira Rajabboyevna
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti 1- kurs tadqiqotchisi
zamira.haqberdiyeva86@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada 6-7 yoshli bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi tayyorlov guruhida qiziqish, savol berish, farazni ilgari surish, kuzatish va oddiy tajriba o'tkazish ko'nikmalarini qo'llab-quvvatlovchi didaktik shartlarni asoslashdir. Metodologiya sifatida rivojlantiruvchi ta'lim, faoliyat yondashuvi va maktabga psixologik tayyorgarlik konsepsiyalari uyg'unlashtiriladi. Ilmiy yangilik sifatida tadqiqotchilik faoliyatining komponentlari va ularni baholash mezonlari hamda pedagogik hamrohlik mexanizmi taklif etiladi.

Kalit so'zlar: maktabga tayyorlov yoshi, tadqiqotchilik faoliyati, bilish qiziqishi, kuzatish, faraz, tajriba, pedagogik hamrohlik.

ПСИХОЛОГИЧЕСКО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ДЕТЕЙ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОГО ШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА (6-7 ЛЕТ)

Аннотаци: В данной статье анализируются психолого-педагогические основы формирования и развития исследовательской деятельности у детей в возрасте 6–7 лет. Цель исследования – обосновать дидактические условия, способствующие развитию навыков любознательности, задавания вопросов, выдвижения гипотез, наблюдения и проведения простых экспериментов в подготовительной группе. В качестве методологии объединены концепции развивающего образования, деятельностного подхода и психологической подготовки к школе. В качестве научного нововведения предложены компоненты исследовательской деятельности и критерии их оценки, а также механизм педагогической поддержки.

Ключевые слова: дошкольный возраст, исследовательская деятельность, любознательность, наблюдение, гипотеза, опыт, педагогическая поддержка.

PSYCHOLOGICAL-PEDAGOGICAL BASIS OF DEVELOPING RESEARCH ACTIVITY IN CHILDREN OF SCHOOL PREPARATORY AGE (6-7 YEARS OLD)

Abstract: This article analyzes the psychological and pedagogical foundations of the formation and development of research activities in children aged 6–7. The

purpose of the study is to substantiate didactic conditions that support the skills of curiosity, asking questions, hypothesizing, observing, and conducting simple experiments in the preparatory group. As a methodology, the concepts of developmental education, activity approach, and psychological preparation for school are combined. As a scientific innovation, components of research activities and criteria for their evaluation, as well as a mechanism for pedagogical support, are proposed.

Keywords: preschool age, research activity, curiosity, observation, hypothesis, experience, pedagogical support.

Kirish. Jahonda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida maktabgacha ta’lim bosqichi inson kapitalini rivojlantirishning muhim omili sifatida e’tirof etilmoqda. Zamonaviy pedagogik konsepsiyalarda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash faqatgina elementar bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bilan cheklanib qolmay, balki ularda mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, izlanish olib borish, tajriba o‘tkazish hamda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Chunki bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida shaxsning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi ko‘p jihatdan uning tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashish va yangi bilimlarni mustaqil egallash qobiliyatiga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida ham maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, bolalarning intellektual, ma’naviy-axloqiy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ta’lim tizimini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari hamda maktabgacha ta’limning Davlat talablari bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularda bilishga qiziqish va mustaqil faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish vazifalarini belgilab bergan. Shuningdek, maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini metodik jihatdan ta’minlovchi “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida bolaning kognitiv rivojlanishi, atrof-muhitni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini qo‘llab-quvvatlash, kuzatish, taqqoslash, tajriba o‘tkazish va xulosalar chiqarish kabi tadqiqotchilik faoliyati elementlarini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida e’tirof etilgan. Mazkur hujjatlarda bolani ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida shakllantirish, uning izlanish va kashf etishga bo‘lgan tabiiy ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash zarurligi alohida ta’kidlanadi. Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalik davri, ya’ni 6–7 yosh oralig‘i bolaning psixik va intellektual rivojlanishida alohida ahamiyatga ega bo‘lgan bosqich hisoblanadi. Ushbu davrda bilishga bo‘lgan ehtiyoj, qiziquvchanlik, mantiqiy fikrlash, tasavvur, refleksiya hamda kommunikativ faollik jadal sur’atlarda

rivojlanadi. Bola atrofdagi voqelikni passiv qabul qiluvchi emas, balki uni faol ravishda o‘rganishga intiluvchi subyekt sifatida namoyon bo‘la boshlaydi. U narsa va hodisalar o‘rtasidagi sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlashga, o‘zini qiziqtirgan savollarga javob topishga, kuzatish va tajribalar orqali xulosalar chiqarishga intiladi. Natijada unda tadqiqotchilik faoliyatining dastlabki ko‘rinishlari shakllanadi.

Psixologik-pedagogik tadqiqotlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, tadqiqotchilik faoliyati bolalarning bilish jarayonlarini faollashtirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, ijodiy salohiyatni yuzaga chiqarish hamda muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarini shakllantirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilik faoliyati jarayonida bola kuzatadi, savollar qo‘yadi, taxminlar ilgari suradi, tajriba o‘tkazadi, natijalarni tahlil qiladi va umumlashtiradi. Bu esa uning nafaqat intellektual rivojlanishiga, balki ijtimoiy-kommunikativ kompetensiyalarining takomillashishiga ham xizmat qiladi. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim amaliyotida bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishga oid metodik yondashuvlarni takomillashtirish, ularning yosh va individual xususiyatlariga mos pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, innovatsion ta’lim texnologiyalarini joriy etish dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtayi nazardan, maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishning nazariy asoslarini aniqlash, samarali metod va vositalarini ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ham aynan maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning tabiiy qiziquvchanligi va bilishga bo‘lgan ehtiyojlarini qo‘llab-quvvatlash, ularda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish orqali kelgusidagi ta’lim bosqichlariga puxta tayyorgarlikni ta’minlash zaruratidan kelib chiqadi [1].

Asosiy qism. Tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish masalasini maktabgacha ta’lim amaliyotida faqat qiziqarli mashg‘ulotlar yoki bolalarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish vositasi sifatida talqin qilish yetarli emas. Zamonaviy psixologik-pedagogik yondashuvlarga ko‘ra, tadqiqotchilik faoliyati maktabga psixologik tayyorgarlikning muhim tarkibiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu faoliyat bolalarning bilish jarayonlarini faollashtirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yangi bilimlarni mustaqil ravishda o‘zlashtirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan tadqiqotchilik faoliyati bolaning intellektual, emotsional va ijtimoiy rivojlanishini ta’minlovchi kompleks pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatining rivojlanishi, avvalo, ularning bilishga bo‘lgan ichki ehtiyojini kuchaytiradi va o‘quv faoliyatiga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantiradi. Psixologik tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, aynan 6–7 yosh davrida bolalarda bilish motivlari va o‘quv

faoliyatiga tayyorgarlikning dastlabki elementlari shakllana boshlaydi. Tadqiqotchilik faoliyati esa ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlab, bolaning atrofdagi voqelikni anglashga bo‘lgan qiziqishini barqarorlashtiradi. Natijada bola tayyor bilimlarni passiv qabul qiluvchi emas, balki bilimlarni mustaqil ravishda izlovchi, savollar qo‘yuvchi va ularga javob topishga intiluvchi faol subyekt sifatida shakllanadi. Tadqiqotchilik faoliyati bolalarning kognitiv rivojlanishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, kuzatish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash va xulosa chiqarish kabi fikrlash operatsiyalari izchil rivojlanadi. Masalan, suvning bug‘lanishi, muzning erishi, urug‘ning unib chiqishi yoki o‘simliklarning o‘sishini kuzatish kabi oddiy tajribalar bolalarda ilmiy bilishning boshlang‘ich elementlarini shakllantiradi. Bunday faoliyat davomida bola kuzatadi, taxminlar ilgari suradi, o‘z fikrlarini tekshiradi va natijalarni tahlil qiladi. Bu esa uning mantiqiy fikrlashi, tafakkur moslashuvchanligi va muammolarni hal etish qobiliyatining rivojlanishiga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqotchilik faoliyati bolaning diqqat, xotira va nutq kabi psixik jarayonlarini rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot jarayonida bola ma’lum obyekt yoki hodisaga diqqatini uzoq vaqt davomida qaratishga, kuzatish natijalarini eslab qolishga va o‘z fikrlarini izchil ifodalashga o‘rganadi. Bu esa keyinchalik maktab ta’limida zarur bo‘ladigan o‘quv faoliyati ko‘nikmalarining shakllanishiga zamin yaratadi. Ayniqsa, o‘z kuzatuvlarini tengdoshlari va pedagog bilan muhokama qilish orqali bolalarda muloqot madaniyati, fikr almashish va dalillash kompetensiyalari rivojlanadi. Tadqiqotchilik faoliyatining muhim jihatlaridan biri uning bolaning emotsional-irodaviy rivojlanishiga ko‘rsatadigan ijobiy ta’siridir. Tadqiqot jarayonida bolaning muvaffaqiyatga erishishi yoki kutilgan natijaga erisha olmasligi tabiiy holat sifatida qabul qilinadi. Shu sababli u xatolarni salbiy natija emas, balki yangi bilim va tajribaga olib boruvchi imkoniyat sifatida anglay boshlaydi. Bunday yondashuv bolada o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi, muvaffaqiyatsizliklardan qo‘rqmaslik, sabr-toqatli bo‘lish va qiyinchiliklarni yengib o‘tish kabi muhim shaxsiy sifatlarni shakllantiradi. Natijada bolaning emotsional barqarorligi va psixologik moslashuvchanligi ortadi.

Maktabga psixologik tayyorgarlikni shakllantirishda ota-onalar va pedagoglarning hamkorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish faqat maktabgacha ta’lim tashkiloti doirasida emas, balki oilaviy muhitda ham davom ettirilishi lozim. Buning uchun kattalar bolalarning savollariga jiddiy munosabatda bo‘lishlari, ularni mustaqil javob izlashga undashlari hamda kundalik hayot jarayonlariga tadqiqot elementlarini kiritishlari maqsadga muvofiqdir. Masalan, uy sharoitida sodda tajribalarni tashkil etish, tabiat hodisalarini kuzatish, muammoli savollar asosida suhbatlar o‘tkazish va birgalikda xulosalar chiqarish bolalarda tadqiqotchilik madaniyatining shakllanishiga xizmat qiladi. Umuman

olganda, tadqiqotchilik faoliyati maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarni har tomonlama rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. U bolalarda bilishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytiradi, mustaqil fikrlash va muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantiradi, emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuvchanlikni ta’minlaydi. Eng muhimi, tadqiqotchilik faoliyati bolani maktab ta’limiga bilimlar majmui bilan emas, balki bilimlarni mustaqil egallash, tahlil qilish va amaliyotda qo‘llash qobiliyatlari bilan tayyorlaydi. Shu bois tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirishni maktabga psixologik tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi sifatida ko‘rish zamonaviy maktabgacha ta’limning muhim ilmiy-metodik vazifalaridan biri hisoblanadi.[1]; [2]; [7].

Psixologik nuqtayi nazardan tadqiqotchilik faoliyati bolaning bilish jarayonlari, motivatsiyasi va irodaviy boshqaruvi o‘zaro birlashgan murakkab tuzilma sifatida namoyon bo‘ladi. 6-7 yoshda idrokning ixtiyoriyligi kuchayib, bola kuzatishda maqsad qo‘yish, e’tiborini muayyan belgiga jamlash va uni bir muddat ushlab turish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Xotirada ham ma’noli eslab qolish unsurlari shakllanib, bola “nima uchun shunday bo‘ldi” degan savolga javob topish uchun avvalgi tajribasini chaqira boshlaydi. Tafakkurda esa tasniflash, qiyoslash, umumlashtirish kabi amallar tobora barqarorlashib, sabab-oqibat aloqalarini sodda modellashtirish paydo bo‘ladi. Shunga qaramay, bu yoshdagi tafakkur hali ham ko‘rgazmali-harakatli va ko‘rgazmali-obrazli tayanchga ehtiyoj sezadi. Demak, tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish real predmetlar, tajribalar, kuzatuvlar hamda muhokama uchun aniq faktlarga tayanishi lozim. Vygotskiy ta’kidlagan yaqin rivojlanish zonasi tamoyili shuni ko‘rsatadiki, bola mustaqil bajara olmaydigan bilish harakatlarini kattalar va tengdoshlar ko‘magida bajarib, keyinchalik ularni o‘zlashtiradi [1]; [3]; [5]. Demak, pedagogning vazifasi tayyor javob berish emas, balki bolaga savolni aniqlashtirish, farazni sinash va natijani tilga ko‘chirishda imkoniyatini yaratishdir.

Muhokama. Pedagogik nuqtayi nazardan tadqiqotchilik faoliyati ta’lim mazmuni, metodlari va muloqot madaniyati bilan shartlangan didaktik tizim sifatida ko‘riladi. Faoliyat yondashuvi doirasida bola bilimi tayyor holda uzatilmaydi, balki muammoli vaziyat, izlanish, tekshirish, xulosa chiqarish jarayonida “quriladi”. Bunda 6–7 yosh uchun muhim shart shuki, muammo bolaning hayotiy tajribasidan kelib chiqishi va uning sezgi-harakat tajribasi bilan sinovdan o‘ta olishi kerak. Aks holda muammo rasmiy tus olib, qiziqish so‘nadi. Shuningdek, tadqiqotchilik faoliyati faqat tabiiy fanlarga taalluqli tushuncha emas. Nutq rivoji, matematika tasavvurlari, konstruktorlik, tasviriy faoliyat va ijtimoiy-hissiy tarbiya ham izlanishning turli ko‘rinishlarini talab qiladi. Masalan, matn bilan ishlashda bola voqea sabablarini aniqlashga urinadi, matematik vaziyatda “boshqa yo‘l bilan ham bo‘ladimi” degan savol tug‘iladi, konstruktorlikda esa barqarorlikni tekshirish uchun sinash amali

paydo bo‘ladi [2]; [4]. Shu bois tadqiqotchilik faoliyatini alohida bo‘lim sifatida cheklash emas, balki butun ta’lim jarayoniga singdirish maqsadga muvofiq.

Tadqiqotchilik faoliyatining psixologik-pedagogik modeli uch asosiy komponentni qamrab olishi mumkin: *motivatsion, kognitiv-operatsion va refleksiv-kommunikativ komponentlardir.*

Motivatsion komponent bolaning bilish jarayoniga nisbatan ichki ehtiyoji, yangi ma’lumot va tajribalarga qiziqishi, atrof-muhitga hayrat va qiziqish bilan qarashi, shuningdek, savol berish va javob izlash jarayonidan zavqlanishi bilan belgilanadi. Bu komponentda tashqi rag‘batlantirish vositalari (baholar, mukofotlar, rag‘batlar) faqat yordamchi, ikkilamchi rol o‘ynaydi. Natijada pedagogning asosiy vazifasi bolaning ichki motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlash, uni rivojlantirish va o‘quv faoliyatining markaziga aylantirishdan iborat bo‘lib, bu esa bolada mustaqil bilish faolligini va uzoq muddatli qiziqishni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kognitiv-operatsion bolaning intellektual faoliyatida kuzatish, taqqoslash, tasniflash, oddiy o‘lchash usullarini qo‘llash, faraz (gipoteza) ilgari surish, tajriba o‘tkazish va olingan natijalarni aniq qayd etish kabi operatsiyalarning tizimli majmuini ifodalaydi. Ushbu komponent bolada kognitiv jarayonlarni amaliy harakatlarga aylantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi va bolaning mustaqil bilim olish, muammolarni aniqlash hamda ularni yechish qobiliyatlarini rivojlantirishning muhim shartidir.

Refleksiv-kommunikativ komponent esa o‘z harakatlarini izohlash, olingan natijalarni boshqalar bilan muhokama qilish, dalillar keltirish, xatolarini tan olish va ularni takomillashtirish ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi. Aynan shu uchinchi komponent 6–7 yoshdagi bolalarda shakllanayotgan ijtimoiy aql (sotsial intellekt) va nutqiy rivojlanish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bolani maktabdagi o‘quv muloqoti va hamkorlikka tayyorlaydi [5]; [6]; [7].

Mazkur faoliyatni rivojlantirish uchun psixologik jihatdan xavfsiz va intellektual jihatdan rag‘batlantiruvchi muhit zarur. Birinchi shart sifatida savol berishga ijobiy munosabatni shakllantirish ko‘rsatiladi. Bolaga “noto‘g‘ri savol” yo‘qligi, savolning o‘zi izlanishning boshlanishi ekani muntazam tajriba orqali anglatiladi. Ikkinchi shart sifatida xatoga munosabat qayta ko‘rib chiqiladi. Xato jazoga sabab emas, balki tekshiruvni davom ettirishga undovchi signal bo‘lishi lozim. Uchinchi shart sifatida sezgi tajribasining boyitilishi muhim. Turli materiallar, tabiat obyektlari, oddiy o‘lchash vositalari, rasm va belgilar bilan ishlash imkoniyatlari bolaga “sinab ko‘rish”ni ta’minlaydi.

1-jadval.

Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar tadqiqotchilik faoliyatining tarkibiy komponentlari tavsifi

Komponentlar	**Mazmuni**	**Asosiy ko‘rsatkichlari**	**Pedagogik ahamiyati**
Motivatsion komponent	Bolaning bilish jarayoniga nisbatan ichki ehtiyoji, yangi ma’lumot va tajribalarga qiziqishi, atrof-muhitga hayrat va qiziqish bilan munosabatda bo‘lishi hamda savol berish va javob izlash jarayonidan zavqlanishini ifodalaydi.	- Bilishga qiziqish; - Savollar berishga intilish; - Yangi tajribalarga ochiqlik; - Mustaqil izlanishga moyillik; - Ichki motivatsiyaning ustunligi.	Bolaning mustaqil bilish faolligini rivojlantiradi, o‘quv faoliyatiga ijobiy munosabatni shakllantiradi hamda uzoq muddatli kognitiv qiziqishni qo‘llab-quvvatlaydi.
Kognitiv-operatsion komponent	Kuzatish, taqqoslash, tasniflash, o‘lchash, gipoteza ilgari surish, tajriba o‘tkazish va natijalarni qayd etish kabi intellektual-amaliy harakatlar tizimini o‘z ichiga oladi.	- Kuzatish ko‘nikmasi; - Taqqoslash va tasniflash; - Gipoteza ilgari surish; - Tajriba o‘tkazish; - Natijalarni qayd etish va tahlil qilish.	Mustaqil bilim olish, muammolarni aniqlash va ularni hal etish kompetensiyalarini rivojlantiradi, tadqiqotchilik faoliyatining amaliy asosini yaratadi.
Refleksiv-kommunikativ komponent	O‘z faoliyatini tahlil qilish, natijalarni izohlash, tengdoshlari va kattalar bilan muhokama qilish, dalillar keltirish, xatolarni tan olish va takomillashtirish ko‘nikmalarini qamrab oladi.	- O‘z fikrini ifodalash; - Natijalarni taqdim etish; - Muhokama va muloqotga kirishish; - Dalillash; - O‘z-o‘zini baholash va refleksiya.	Ijtimoiy intellekt va nutqiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi, bolani maktabdagi o‘quv muloqoti hamda hamkorlik faoliyatiga tayyorlaydi.

To‘rtinchi shart sifatida muloqotning dialogik shakli zarur. Pedagog monologi o‘rniga bolalar savol-javob, bahs va kelishuv orqali xulosaga keladigan muhit yaratiladi. Bu yondashuvda ta’kidlagan kashfiyot orqali o‘qitish g‘oyasiga mos keladib. Bola tayyor qoida emas, dalillar va muhokama asosida o‘zi uchun “kichik kashfiyot” qiladi [6]; [7]; [12].

Tadqiqotchilik faoliyatini samarali tashkil etishda pedagogik hamrohlikning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi muhim metodik shartlardan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuv bolaning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda uning bilish faoliyatini izchil rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik hamrohlik

jarayonining dastlabki bosqichida pedagog tomonidan bolalarda bilishga oid ehtiyoj va qiziqishni uyg‘otuvchi muammoli vaziyat yaratiladi. Bunda kundalik hayotda uchraydigan va bolalar tajribasiga yaqin bo‘lgan savollardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, “Nima uchun ayrim buyumlar suv yuzasida suzadi, boshqalari esa cho‘kadi?” kabi savollar bolalarni kuzatish, fikrlash va taxminlar ilgari surishga undaydi.

Keyingi bosqichda bolalar tomonidan ilgari surilgan farazlar (gipotezalar) yig‘iladi va ularni tekshirish usullari aniqlanadi. Ushbu jarayonda pedagog bolalarning nutqiy rivojlanish darajasini hisobga olgan holda ularning fikrlarini aniq va mantiqiy ifodalashiga metodik yordam ko‘rsatadi. Farazlarni shakllantirish bolalarda sabab-oqibat munosabatlarini tushunish, taxmin qilish va mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Uchinchi bosqichda tajriba yoki maqsadli kuzatuv tashkil etiladi. Bu bosqich tadqiqotchilik faoliyatining amaliy qismi bo‘lib, unda bolalar o‘z farazlarini tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Olingan natijalarni qayd etishda maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning psixofiziologik xususiyatlariga mos vositalardan, jumladan, rasmlar, shartli belgilar, taqqoslash jadvallari, grafik tasvirlar va boshqa vizual elementlardan foydalaniladi. Bunday vositalar bolalarning kuzatish natijalarini tizimlashtirish va umumlashtirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. To‘rtinchi bosqichda olingan natijalar muhokama qilinib, tegishli xulosalar shakllantiriladi. Muhokama jarayonida bolalar o‘z fikrlarini asoslashga, kuzatish natijalarini izohlashga va tengdoshlari bilan fikr almashishga o‘rgatiladi. Shu tariqa ularda refleksiv va kommunikativ ko‘nikmalar rivojlanadi. Mazkur bosqichda “dalil”, “isbot”, “natija” kabi tushunchalar bolalar yoshiga mos ravishda sodda va tushunarli shaklda izohlanadi. Yakuniy bosqichda esa olingan bilim va xulosalarni yangi vaziyatlarga transfer qilish, ya’ni boshqa predmetlar, hodisalar yoki sharoitlarda qo‘llash imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa bolalarda bilimlarni amaliyotga tatbiq etish, umumlashtirish va mustaqil tadqiqot faoliyatini davom ettirish motivatsiyasini kuchaytiradi. Pedagogik hamrohlikning mazkur sikli muntazam ravishda takrorlanib borishi natijasida bolalarda tadqiqotchilik faoliyatining tarkibiy elementlari bosqichma-bosqich shakllanadi, ularning mustaqil bilish faolligi ortadi hamda ilmiy bilishning boshlang‘ich ko‘nikmalari rivojlanadi. [7]; [8]; [9]. Mahalliy pedagogik tadqiqotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi ta’lim muhiti hamda faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni qo‘llash bolalarning bilishga oid faolligi, qiziquvchanligi va mustaqil izlanish faoliyatini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, muammoli ta’lim elementlari, tajriba-sinov faoliyati, loyiha usuli, didaktik o‘yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish bolalarda kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, xulosa chiqarish va o‘z fikrini asoslash kabi muhim intellektual ko‘nikmalarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli maktabga

tayyorlov yoshidagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish jarayonida rivojlantiruvchi muhitni yaratish va pedagogik hamrohlikni ilmiy-metodik asosda tashkil etish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotchilik faoliyatini baholash maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda tadqiqotchilik kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Biroq ushbu faoliyatni baholashda an'anaviy natijaga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalanish har doim ham kutilgan samarani bermaydi. Chunki tadqiqotchilik faoliyatining asosiy maqsadi bolani ma'lum bir tayyor bilimni egallashga emas, balki mustaqil izlanish, savol qo'yish, taxmin ilgari surish, kuzatish, tahlil qilish va xulosa chiqarish jarayonlariga jalb etishdan iboratdir. Shu sababli noto'g'ri tashkil etilgan baholash tizimi bolalarning tabiiy qiziquvchanligi va izlanish motivatsiyasini pasaytirib, tadqiqotchilik faoliyatini "to'g'ri javobni topish"ga qaratilgan reproduktiv faoliyatga aylantirib qo'yishi mumkin.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlarga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalarning tadqiqotchilik faoliyatini baholashda yakuniy natijadan ko'ra faoliyat jarayoniga ustuvor ahamiyat berilishi lozim. Bunda bolaning o'rganilayotgan muammo yuzasidan savollar qo'ya olishi, o'z taxminlarini ilgari surishi, tajriba va kuzatuv jarayonlarida faol ishtirok etishi, olingan natijalarni izohlashi, tengdoshlari fikrini tinglashi hamda muhokama jarayonida o'z nuqtayi nazarini ifodalashi kabi ko'rsatkichlar asosiy diagnostik mezonlar sifatida xizmat qiladi. Mazkur yondashuv bolaning tadqiqotchilik faoliyatidagi individual faolligini, bilish jarayonlarining rivojlanish darajasini va kompetensiyalarining shakllanish dinamikasini aniqlash imkonini beradi. Tadqiqotchilik faoliyatini baholashda pedagogik diagnostikaning kompleks usullaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Xususan, pedagogik kuzatuv, individual va guruhli suhbatlar, bolalar faoliyati mahsullarini tahlil qilish, refleksiv muloqot hamda vaziyatli topshiriqlar orqali olingan ma'lumotlarni o'zaro integratsiyalash tadqiqotchilik kompetensiyalarining rivojlanish darajasini yanada obyektiv baholash imkonini yaratadi. Pedagog tomonidan olib boriladigan muntazam kuzatuvlar bolalarning bilishga bo'lgan qiziqishi, mustaqilligi, tashabbuskorligi va izlanish faolligidagi o'zgarishlarni aniqlashga xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim amaliyotida baholash natijalarini reyting, ball yoki bolalarni o'zaro taqqoslash shaklida emas, balki har bir bolaning individual rivojlanish trayektoriyasini aks ettiruvchi sifat tavsiflari asosida qayd etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunday yondashuv bolaning shaxsiy muvaffaqiyatlarini e'tirof etishga, uning o'z imkoniyatlariga bo'lgan ishonchini mustahkamlashga hamda bilish faoliyatiga nisbatan ijobiy motivatsiyani saqlab qolishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, individual rivojlanish dinamikasini monitoring qilish pedagogga keyingi ta'limiy ta'sirlarni rejalashtirish, bolalarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib pedagogik qo'llab-quvvatlash strategiyalarini ishlab chiqish imkonini beradi. Yosh

psixologiyasi sohasidagi ilmiy tadqiqotlar ham maktabgacha yosh davrida rivojlanish ko‘rsatkichlarini baholashda individual yondashuvning muhimligini tasdiqlaydi. Xususan, G.M. Davletshinning yosh va pedagogik psixologiyaga oid ilmiy qarashlarida bolaning psixik rivojlanishi murakkab va dinamik jarayon ekanligi, uni baholashda yoshga xos individual farqlar, qiziqishlar va rivojlanish sur’atlarini hisobga olish zarurligi alohida ta’kidlanadi. Olimning fikricha, pedagogik kuzatuv va maqsadli pedagogik ta’sirning uyg‘unligi bolalarning shaxsiy rivojlanishidagi nozik o‘zgarishlarni aniqlash hamda ularni qo‘llab-quvvatlashning eng samarali vositalaridan biri hisoblanadi. Shunday qilib, maktabga tayyorlov yoshidagi bolalar tadqiqotchilik faoliyatini baholash jarayoni nazorat qilish yoki natijani qayd etish vositasi sifatida emas, balki bolaning bilish faolligi, izlanish qobiliyati va tadqiqotchilik kompetensiyalarining rivojlanish dinamikasini aniqlash hamda qo‘llab-quvvatlashga xizmat qiluvchi pedagogik diagnostika mexanizmi sifatida tashkil etilishi lozim. Bu esa bolalarda mustaqil fikrlash, tadqiqotchilik madaniyati va umrbod ta’lim olish kompetensiyalarining shakllanishiga zamin yaratadi. [8]; [13]; [9];. Shuningdek, tadqiqotchilik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda oilaning o‘rni katta. Uy sharoitida oddiy kuzatuvlar, birgalikda savol berish va javobni tekshirish madaniyati shakllansa, bog‘chadagi izlanishlar barqarorroq natija beradi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda kognitiv faollikni rivojlantirishga oid nazariy tushunchalarni o‘rganish shuni xulosaga keltiradiki, ushbu sohada keng ko‘lamli psixologik va pedagogik tadqiqotlarga qaramay, kognitiv faoliyatga qiziqish va motivatsiyaning paydo bo‘lishi tabiati bilan bog‘liq masalalar yetarlicha o‘rganilmagan; bundan tashqari, ontogenezning dastlabki bosqichlarida uning rivojlanish qonuniyatlari, shartlari va mexanizmlari hali aniqlanmagan [9]; [11]; [12];.

XULOSA. Maktabga tayyorlov yoshidagi, ya’ni 6–7 yoshli bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish zamonaviy maktabgacha ta’limning ustuvor va strategik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu yosh davrida bolalarning bilishga bo‘lgan ehtiyoji, qiziquvchanligi, kuzatuvchanligi hamda atrof-muhitni anglashga intilishi tadqiqotchilik faoliyatini shakllantirish uchun qulay psixologik-pedagogik zamin yaratadi. Mazkur jarayon psixologik nuqtayi nazardan bilish jarayonlarining ixtiyoriylashuvi, ya’ni diqqatni boshqarish, ma’lumotlarni ongli ravishda eslab qolish, fikrlash operatsiyalarini rejalashtirish va nazorat qilish qobiliyatlarining rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Pedagogik nuqtayi nazardan esa tadqiqotchilik faoliyati muammoli vaziyatlar yaratish, izlanishga yo‘naltirilgan topshiriqlarni tashkil etish, tajriba va kuzatuvlarni amalga oshirish hamda dialogik hamkorlik muhitini shakllantirish orqali samarali rivojlantiriladi.

Tadqiqot davomida tadqiqotchilik faoliyatining mazmuni va tuzilmasini ochib berishga xizmat qiluvchi komponentli yondashuv asoslandi. Unga ko‘ra, tadqiqotchilik faoliyati motivatsion, kognitiv-operatsion va refleksiv-kommunikativ komponentlarning o‘zaro uzviy bog‘liqligi asosida shakllanadigan yaxlit pedagogik tizim sifatida talqin etildi. Motivatsion komponent bolaning bilishga bo‘lgan ichki ehtiyoji, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga qiziqishi va izlanishga tayyorligini ifodalasa, kognitiv-operatsion komponent kuzatish, taqqoslash, tasniflash, gipoteza ilgari surish, tajriba o‘tkazish hamda natijalarni tahlil qilish kabi tadqiqotchilik harakatlarining shakllanishini ta’minlaydi. Refleksiv-kommunikativ komponent esa bolaning o‘z faoliyatini baholashi, xulosalar chiqarishi, natijalarni tengdoshlari va kattalar bilan muhokama qilishi hamda fikrlarini asoslay olishi bilan xarakterlanadi.

Aniqlanishicha, mazkur komponentlarning uyg‘un rivojlanishi tadqiqotchilik faoliyatining samaradorligini ta’minlovchi muhim omil hisoblanadi. Ularning integratsiyasi muammoni aniqlash, taxmin ilgari surish, tajriba o‘tkazish, natijalarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va yangi savollarni shakllantirishdan iborat tadqiqot sikllari orqali amalga oshiriladi. Bunday ketma-ketlik bolalarda ilmiy bilishning boshlang‘ich elementlarini shakllantirib, ularni mustaqil fikrlash va izlanishga yo‘naltiradi. Shuningdek, tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi ta’lim muhitini yaratish, faoliyatga yo‘naltirilgan pedagogik texnologiyalarni qo‘llash hamda pedagogik hamrohlikni tizimli tashkil etish bolalarning tadqiqotchilik faolligini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi. Ayniqsa, muammoli ta’lim elementlari, tajriba faoliyati, kuzatuvlar, didaktik o‘yinlar va interaktiv metodlardan foydalanish bolalarda mustaqil bilim olish, dalillar asosida fikr yuritish va muammolarni hal etish ko‘nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tadqiqotchilik faoliyatini baholashda esa natijaga emas, balki jarayonga yo‘naltirilgan diagnostik yondashuvning ustuvorligi asoslandi. Bunda bolaning savol qo‘ya olishi, taxmin ilgari surishi, tajribada faol ishtirok etishi, natijalarni izohlashi va muloqotga kirishishi kabi ko‘rsatkichlarni kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa har bir bolaning individual rivojlanish dinamikasini aniqlash va uni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Umuman olganda, maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini maqsadli rivojlantirish ularning maktab ta’limiga intellektual va psixologik tayyorgarligini oshiradi. Natijada bola maktabga faqat ma’lum hajmdagi bilimlar bilan emas, balki savol qo‘yish, mustaqil izlanish, dalillarni tahlil qilish, asoslangan xulosalar chiqarish va hamkorlikda faoliyat yuritish kompetensiyalari bilan kirib boradi. Bu esa kelgusida o‘quv motivatsiyasining barqarorligini ta’minlash, tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish hamda umrbod ta’lim olishga tayyor shaxsni shakllantirish uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shunday qilib, maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarda tadqiqotchilik faoliyatini rivojlantirish nafaqat ta’lim samaradorligini oshirishning muhim pedagogik sharti,

balki innovatsion fikrlaydigan, tashabbuskor, ijodkor va ijtimoiy faol avlodni tarbiyalashning muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2019.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maktabgacha ta’lim va tarbiya davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarori. – Toshkent, 2020.
4. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining Davlat o‘quv dasturi. – Toshkent: Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, 2022.
5. Qodirova F. R. Maktabgacha pedagogika: Darslik. Toshkent: O‘qituvchi, 2019. 320 b.
6. Azimova A.Sh., Nurullayev A.R. Kreativ yondashuv asosida didaktik o‘yinlar orqali maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkurini rivojlantirish metodikasi. – 2024.
7. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Qayumova N.M., A’zamova M.N.Maktabgacha pedagogika: darslik. Toshkent: Tafakkur, 2019. – 683 b.
8. Yo‘ldoshev J. G‘ , Usmonov S. A. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘qituvchi, 2018. 320 b.
9. Abdullayeva Z. K. Maktabga tayyorlov yoshidagi bolalarning tadqiqot faoliyatini shakllantirishning psixologik xususiyatlari. Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. 184 b.
10. Веракса Н. Е., Галимов О. Р. Познавательно-исследовательская деятельность дошкольников. Для работы с детьми 4–7 лет. Москва: МОЗАИКА-СИНТЕЗ, 2012. – 80 с.
11. Трифонова Е.В. Организация и развитие исследовательской деятельности в условиях дошкольных образовательных организаций: Методические рекомендации. Москва: ВОО «Воспитатели России», 2021.
12. Давлетшин М. Г. Yosh va pedagogik psixologiya. Toshkent: O‘qituvchi, 2004. 256 b.
13. Будникова Т. Л. Психолого-педагогические технологии развития познавательной активности детей старшего дошкольного возраста // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017.